



## Libos dizaynida tikuvchilik va kashtachilikka oid terminlarning o'zbek va ingliz tillarida izohi.

ТерДУ инглиз тили ва адабиёти

кафедраси ўқитувчиси

**Уринова Турсуной**

+998915869997,

*tursunoy.urinova.97@mail.ru*

### Annotation

Ushbu maqolada libos dizayni leksikasining ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy izohlari keltirib o'tilgan. Undan tashqari, termonologik jihatdan kashtachilik va tikuvchilikka oid o'zbek tilidagi so'zlarning misollari keltirilgan bo'lib, ularning ingliz tilidagi muqobil variantlari hamda izohi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** libos dizayni, kashtachilik, tikuvchilik, kiyim-kechak, hunarmandchilik, terminologiya.

### Аннотация

В данной статье даны сравнительные пояснения лексики дизайна одежды на английском и узбекском языках. Кроме того, приведены примеры терминологически родственных узбекских слов, связанных с вышивкой и пошивом одежды, а также их альтернативные варианты и толкования на английском языке.

**Ключевые слова:** дизайн одежды, вышивка, пошив одежды, одежда, промыслы, терминология.

### Abstract

In this article, comparative explanations of clothing design lexicon in English and Uzbek languages are given. In addition, examples of terminologically related Uzbek words related to embroidery and tailoring are presented, as well as their alternative versions and explanations in English.

**Key words:** dress design, embroidery, tailoring, clothing, crafts, terminology.

Terminologiya, lotincha – terminus, ya'ni chegara va logos – fan, ta'lilot so'zlaridan iborat bo'lib, odatda ikki xil ma'noda ishlataladi. Bularidan birinchisi muayyan fan, texnika,



ishlab chiqarish tarmog'ining yoxud san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlar majmui hisoblanadi. Misol tariqasida quyidagilarni aytishimiz mumkin: hunarmandchilik terminologiyasi; Harbiy terminologiya; Zargarlik terminologiyasi; Turizm terminologiyasi ;Texnika terminologiyasi. Ikkinchi ma'nosi esa tilshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasidir. Terminologiya – ijtimoiy muloqotning eng muhim vositalaridan biri, umuman tilning mavjudligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Termin tuzish va yaratish mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida maqsadli qidiruv sifatida ifodalanishi mumkin. Ma'lum bir milliy va xalqaro til yaratilgan ekan, shu til kodlanadi, saqlanadi va qayta ishlanadi. Shubhasizki, tillar uchun terminologik ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>5</sup>

Keyingi yillarda xalq hunarmandchiliga qiziqishning tobora oshib borishi kasbhunarga oid leksikani yanada ko'proq o'rghanishni taqozo etmoqda. Bu ishimizda tikuvchilik va kashtachilikka oid terminlarning ingliz tilidagi izohiga to'xtalib o'tamiz.

Tayyorlangan kiyim kechaklarning umumiyligi nomlari:

So'zana, Quroq, Ko'rpacha, Kaltacha, Beshikyopiq, Chopon, Ko'yvak.

Tayyorlangan mahsulot nomlari:

Bosmacha, Kandaxayol (kashta turi), Beshyuzli quroq, Olma quroq (quroq ko'rpacha turlari), Qovuzloq (beshikka solinadigan baxmal ko'rpacha), Kipich (ayollar bosh kiyimi).

Naqsh va bezaklar turi:

Shirozi, Iroqi, Yastiqqosh, chamandagul, zizzak.

Mahsulotni tayyorlash bilan bog'liq terminlar:

Ilmoq, ko'rpaqora (ko'rpa chetiga tikiladigan material), Qobiq (paxta kiyimlarni qavish), Abra (ko'rpaning ust qismi), Astar (ko'rpaning ichki qismi).

Asbob va uskuna nomlari:

Dug (kashtani materialga chizadigan qalam), o'ymoq (angishvona), iyna.<sup>6</sup>

<sup>5</sup> M.F.Xo'jayeva, O.B.Uralova, "INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HUNARMANDCHILIK TERMINLARINING SEMANTIK VA LINGVOSTATISTIK TAVSIFI (XARAKTERISTIKASI)", EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, Vo.2., Issue 3., March 2022

<sup>6</sup> M. Abdiyev, "Tikuvchilik va kashtachilikka oid terminlar xususida" Leksikologiya va leksikografiya. Samarqand davlat universiteti. 1999y. 42-bet.



Adabiy tilda Samarqand viloyati shevalarida kashta asosiy tur termin hisoblanadi. “Kashta tiksang tekis tik” iborasi ham bekorga aytilmagan. Samarqand shahri va uning tutash tumanlarida kashtalar o’ziga xos buyumlarga tikiladi. Ular quyidagicha terminlar bilan atalib kelinmoqda: zardevol, ro’joy (sochiq), dostiq (yostiq), oyna parda, deraza parda, belbov (belbog’), ro’molcha, joynamoz.<sup>7</sup>

Semantik-sintaktik usul bilan hosil qilingan kashtachilikka oid terminlar

Biror tushunchani ifodalash maqsadida termin hosil qilishning semantik-sintaktik usullaridan ham keng foydalanylayotir:

1. Gilam, poyondoz, olacha, sochiq, kashta, choyshab kabi narsa-predmetlar nomiga gul, kashta, nusxa, naqsh, usul, bezak kabi termin elementlar qo’shib ishlatiladi: ikkigulli gilam, choyshab kashtasi (keshtasi), sochiq (sochaq) guli, yostiq (dostiq) guli kabilar.

2. Narsa-predmetlar nomlariga qayd etilgan leksemalarni birinchi tip izofa vositasida ifodalash orqali ham maxsus terminlarning yuzaga keltirilganligini quyidagi misollar bilan tasdiqlash mumkin. Bunday lug‘aviy birliklar hunarmandchilikning kashtachilik, gilamchilik kabi sohalarida ko‘proq uchraydi: anorgul (kashtachilikda), ilon izi (o‘ymakorlik, kashtachilik, koshinkorlik, kulollik kabi sohalarda), chashmi bulbul (kashtachilik, yo‘rmado‘zlik sohalarida), baliqko‘z (gilamchilik, pichoqchilik), tuya-ko‘z (holvapazlik), samovargul (kashtachilik), tariqgul (kashtachilik, gilamchilik, kulollik), bovirsoqgul(bo‘g‘irsoqgul), kosagul(kashtachilik, gilamchilik), karsangul tog‘oragul (gilamchilik, kashtachilik), tol bargi (kashtachilik), ittovan (gilamchilik), pichoq uchi (gilamchilik ) kabilar.<sup>8</sup>

Tikuvchilik va kiyim-kechakka oid terminlar: abo – oldi ochiq, jundan to‘qilgan ustki kiyim; burqa – yuzga tutiladigan parda; debo – turli rangda tovlanuvchi harir ipak mato; jubba – darveshlarning xos kiyimi; dalq - so‘fiylarning junli kiyimi; daklay – ustki kiyim, paxtali chopon;

Ingliz va o’zbek tillarida tikuvchilikka oid terminlar jadvali:

Armhole	Qo’l teshigi (bichish vaqtida yeng ulashdagি kesma)
---------	---

<sup>7</sup> M.Abdiyev, “Samarqand kashtachiligi terminlari xususida”, Samarqand davlat universiteti, 2011-yil, 72-bet.

<sup>8</sup> S.Sh. Pardayev, “KASB-HUNAR LEKSIKASINING YASALISHI (MIRMUHSINNING “ME’MOR” ROMANI MATERIALLARI ASOSIDA)”, Yosh tadqiqotchi jurnali, Vol.1. No 4. 2022.



Collar	Yoqa (Ko'ylak, bluzka, ko'ylagi bo'ynidagi qism, tik turgan yoki ustiga tekis yotadigan palto va boshqalar elka maydoni).
Cuff	Manjet (Yengning pastki qismi, odatda bilakning tepasida, yengning materiali orqaga burilgan joy va tozalangan yoki mustahkamlash uchun alohida tasma qo'shiladi yeng qirrasi).
Pocket	Cho'ntak (Kichkina sumka kabi kiyimlarning yon tikuvlariga tikiladigan mato. Yamoq cho'ntak, masalan. jinsi shimplardagi orqa cho'ntaklar).
Waistband	Matodan tikilgan kamar ( yubkalarning yoki paltolarning belbogi).
Stitch	Kashta (gazlamaga tushuriladigan tikuvchilik naqshi)

## Adabiyotlar:

1. M.F.Xo'jayeva, O.B.Uralova, "Ingliz va o'zbek tillarida hunarmandchilik terminlarining semantic va lingvostatistik tavsifi (xarakteristikasi)", EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, Vo.2., Issue 3., March 2022
  2. M. Abdiyev, "Tikuvchilik va kashtachilikka oid terminlar xususida" Leksikologiya va leksikografiya. Samarqand davlat universiteti. 1999y. 42-bet.
  3. M. Abdiyev, "Samarqand kashtachiligi terminlari xususida", Samarqand davlat universiteti, 2011-yil, 72-bet.
  4. S.Sh. Pardayev, "Kasb-hunar leksikasining yasalishi (Mirmuhsinning "Me'mor" romani materiallari assosida)", Yosh tadqiqotchi jurnali, Vol.1. No 4. 2022.